



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 80 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
Jonbo'tayeva Maxarramxon	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
Alibekova Mahzuna	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari...	54
Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
Ruzmetova D. A.	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
Saydanova Dilafruz Sadirdinovna	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich	

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING TARIXIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING TUZILMASI VA PEDAGOGIK KOMPONENTLARI

Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirish muammosi va uning dolzarbligi yoritilgan. Tarixiy tafakkurning kognitiv, aksiologik hamda amaliy-faoliyat komponentlarining ilmiy-nazariy mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, talabalarda tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muammoli ta'lim texnologiyalari, raqamli vositalar, hermenevtik yondashuv va kognitiv hamkorlik muhitini dars jarayoniga integratsiya qilish usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tarixiy tafakkur, pedagogik komponentlar, kognitiv kompetensiya, analitik yondashuv, aksiologik komponent, hermenevtik tahlil, muammoli ta'lim, oliy pedagogik ta'lim.

Abstract: This article highlights the problem and relevance of developing historical thinking in future history teachers at higher pedagogical education institutions. It reveals the scientific and theoretical essence of the cognitive, axiological, and practical-activity components of historical thinking. The article also analyzes ways of integrating problem-based educational technologies, digital tools, the hermeneutic approach, and a cognitive collaborative environment into the teaching process in order to develop students' analytical and critical thinking.

Key words: historical thinking, pedagogical components, cognitive competence, analytical approach, axiological component, hermeneutic analysis, problem-based learning, higher pedagogical education.

Аннотация: В данной статье освещается проблема формирования исторического мышления у будущих учителей истории в высших педагогических образовательных учреждениях и её актуальность. Раскрыта научно-теоретическая сущность когнитивного, аксиологического и практико-деятельностного компонентов исторического мышления. Также проанализированы способы интеграции в учебный процесс проблемных образовательных технологий, цифровых средств, герменевтического подхода и среды когнитивного сотрудничества, направленных на развитие у студентов аналитического и критического мышления.

Ключевые слова: историческое мышление, педагогические компоненты, когнитивная компетенция, аналитический подход, аксиологический компонент, герменевтический анализ, проблемное обучение, высшее педагогическое образование.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasida tarix o'qituvchisining roli shunchaki faktlar va sanalarni yodlatuvchi translyatordan, o'quvchilarda o'tmish voqeligini tanqidiy tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish va to'g'ri xulosalar chiqarish malakasini shakllantiruvchi fasilitatorga aylanmoqda. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini, ya'ni analitik, kognitiv va ijodiy fikrlashini shakllantirish ta'lim jarayonining yadrosidir. Bu jarayon ko'p qirrali va yaxlit tizim bo'lib, uning tuzilmasi hamda pedagogik komponentlarini ilmiy-metodik asosda integratsiya qilish bugungi ta'lim sohasining dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirish masalasi, avvalo, uning ichki tuzilmasini to'g'ri aniqlashni talab etadi. Chunki tarixiy tafakkur faqat tarixiy bilimlar yig'indisi emas, balki talabning tarixiy voqelikni idrok etishi, tahlil qilishi, baholashi, dalillashi va pedagogik faoliyatda qo'llay olishini ta'minlaydigan murakkab kasbiy-intellektual sifatdir. Shu jihatdan tarixiy tafakkur mazmunan kognitiv, qadriyatli, tahliliy, refleksiv va amaliy komponentlarning o'zaro uyg'unligida shakllanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tarixiy tafakkurning tuzilmasini aniqlashda uning kasbiy-pedagogik yo'nalganligini ham hisobga olish zarur. Bo'lajak tarix o'qituvchisi tarixiy faktlarni bilishi bilan birga, ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish imkoniyatlari va ijtimoiy tajribasiga moslashtirib tushuntira olishi kerak. Demak, tarixiy tafakkur bo'lajak o'qituvchi uchun nafaqat shaxsiy intellektual rivojlanish ko'rsatkichi, balki kelajakdagi dars jarayonini samarali tashkil etishning metodik asosi hamdir.

Mazkur jarayonda tarixiy tafakkurning shakllanishi bosqichma-bosqich kechadi. Dastlab talaba tarixiy bilimlarni o'zlashtiradi, keyin ularni manbalar asosida tahlil qiladi, so'ngra voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini anglaydi, yakuniy bosqichda esa olingan bilim va xulosalarni pedagogik vaziyatlarda qo'llash malakasiga ega bo'ladi. Ana shu izchillik tarixiy tafakkurning oddiy bilim darajasidan kasbiy kompetensiya darajasiga ko'tarilishini ta'minlaydi.

Tarixiy tafakkur - bu nafaqat voqealarni xronologik tartibda bilish, balki ularni sababiy bog'lanishlar asosida chuqur tahlil qilish, tarixiy manbalarni obyektiv baholash va zamonaviy ijtimoiy-siyosiy muammolarga qiyoslash qobiliyatidir ^[1].

Tadqiqotchi R. Zamilova ta'kidlashicha, bo'lajak tarix o'qituvchisining tarixiy tafakkuri insonparvarlik hamda madaniy-tarixiy qadriyatlarni saqlashni kafolatlaydi, shuningdek, o'quvchining qadriyatli yo'nalishlarini va ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlaydi ^[2].

Bo'lajak tarix o'qituvchilari tarixiy tafakkurining konseptual tuzilmasini quyidagi asosiy komponentlarga ajratish maqsadga muvofiq:

- 1. Kognitiv (bilish) komponenti:** tarixiy faktlarni o'zlashtirish, mantiqiy tahlil va sintez qilish layoqati. Bunga tarixiy voqealarni taqqoslash, abstraksiyalash jarayonlari va tarixiy qonuniyatlarni teran anglash kiradi. Abstraksiya tarixiy tafakkur operatsiyasi sifatida davr voqeligi, rivojlanish tendensiyalari va shart-sharoitlarning eng muhim xususiyatlarini farqlab olish imkonini beradi ^[4].
- 2. Aksiologik (qadriyat-emotsional) komponent:** Tarixiy o'tmishga nisbatan shaxsiy va fuqarolik munosabatini shakllantirish, boy milliy va ilmiy merosimizni qadrlashni anglatadi. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy kabi Sharq mutafakkirlarining boy merosidan manba sifatida foydalanish orqali talabada tarixiy ong va milliy g'urur shakllanadi ^[3].
- 3. Amaliy-faoliyat (kreativ) komponenti:** Olingan nazariy bilimlarni pedagogik amaliyotga tatbiq etish, dars jarayonini innovatsion tashkil etish hamda o'quvchilarda ham xuddi shunday tafakkurni shakllantira olish, ya'ni didaktik transformatsiya ko'nikmalari.

Yuqorida ko'rsatilgan komponentlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Kognitiv komponent tarixiy bilimlarning mazmuniy asosini yaratsa, aksiologik komponent ushbu bilimlarga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantiradi. Amaliy-faoliyat komponenti esa bilim va qadriyatlarining real pedagogik faoliyatda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli tarixiy tafakkurni shakllantirishda mazkur komponentlardan birini e'tibordan chetda qoldirish butun jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, talaba tarixiy faktlarni yaxshi bilishi mumkin, biroq ularni manba asosida tahlil qila olmasa yoki tarixiy voqea mohiyatini qadriyatlar bilan bog'lay olmasa, uning tarixiy tafakkuri to'liq shakllangan deb bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, talaba tarixiy voqeaga qadriyatli munosabat bildirishi mumkin, ammo bu munosabat ilmiy dalillar, manbaviy asos va tahliliy xulosa bilan mustahkamlanmasa, u subyektiv qarash darajasida qolib ketadi. Shu bois kognitiv bilim, aksiologik munosabat va amaliy qo'llash malakasi yagona pedagogik tizimda shakllantirilishi lozim.

Komponentlararo bog'liqlikni ta'minlash uchun ta'lim jarayonida nazariy ma'ruza, seminar, manba tahlili, muammoli topshiriq, loyiha ishi va pedagogik amaliyot o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda talaba avvalo mavzu bo'yicha nazariy bilim oladi, keyin tarixiy hujjat yoki ilmiy manbani tahlil qiladi, so'ngra mazkur bilim asosida dars fragmenti, keys topshirig'i yoki interaktiv mashg'ulot loyihasini ishlab chiqadi. Natijada tarixiy tafakkur talabaning faqat bilimlar tizimida emas, balki amaliy pedagogik faoliyatida ham namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, tarixiy tafakkurning pedagogik komponentlari bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy shakllanishida o'ziga xos "ichki mexanizm" vazifasini bajaradi. Ushbu mexanizm orqali talaba tarixiy bilimni anglaydi, uni qadriyatlar bilan bog'laydi, tanqidiy baholaydi va pedagogik jarayonda ijodiy qo'llashga tayyor bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talabalarning tarixiy tafakkurini tizimli ravishda rivojlantirish maxsus pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi. Quyidagi pedagogik komponentlar ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlaydi:

- 1. Muammoli ta'lim va analitik yondashuv.** Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi tizimli xarakterga ega. Ularda tahliliy fikrlashga motivatsiya uyg'otish va mustaqil analitik amaliyotga o'rgatish fanning eng asosiy xususiyatidir. Auditoriya mashg'ulotlarida muammoli vaziyatlarni yaratish, masalan, tarixiy shaxslarning qabul qilgan qarorlariga muqobil yechimlar qidirish miyaning kognitiv faoliyatini jadal rag'batlantiradi.
- 2. Raqamli texnologiyalar va kelajak o'qituvchisi modeli.** Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar tarix ta'limining didaktik imkoniyatlarini keskin kengaytirmoqda. Virtual muzeylar, raqamli 3D xaritalar, elektron arxivlar va multimedia resurslaridan foydalanish tarixiy jarayonlarni vizual hamda interaktiv shaklda talqin qilishga yordam beradi. Kelajak o'qituvchisi modelida talabalarning raqamli kompetensiyalarini o'stirish bevosita ularning manbalar ustida mustaqil tadqiqot olib borishini osonlashtiradi [6].
- 3. Germenevtik yondashuv va manbashunoslik ustida ishlash.** Bo'lajak mutaxassislarda uzoq o'tmish manbalariga tanqidiy munosabatni shakllantirish uchun germenevtik tahlil matn mohiyatini ich-ichidan his qilish va to'g'ri talqin qilish texnikasi juda muhimdir. Turli tarixiy manbalardagi ziddiyatlilikni aniqlash va ularni ilmiy taqqoslash orqali talabada tarixiy haqiqatlarni obyektiv baholash layoqati vujudga keladi.
- 4. Kreativ muhit va kognitiv hamkorlik.** Ta'lim jarayonining negizi - o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik faoliyatidir. B. Ergashev ta'kidlaganidek, kognitiv kompetensiyani rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilar pedagogik faoliyatida markaziy o'rin tutadi, chunki u nafaqat intellektual salohiyatni oshiradi, balki divergent fikrlashni yuzaga chiqaradi [1].
- 5. Oliy ta'limda jarayonni modellashtirish.** Bo'lajak tarix o'qituvchilari uchun "Tarix o'qitish metodikasi" fani tarixiy tafakkurni pedagogik jihatdan realizatsiya qilishning asosiy maydoni sanaladi. Oliy ta'limda kolloborativ va kognitiv komponentlar integratsiyasiga asoslangan ta'lim modelini joriy etish orqali quyidagilarga erishiladi:
 - Talabalarning tarixiy-ilmiy izlanish madaniyati va tadqiqotchilik ko'nikmalari yuksaladi;
 - Tarixni izchil o'rganish konsentrik tizimga o'tadi, natijada ular murakkab voqeliklarni o'quvchilarga moslashtirib bera oladi;
 - Ma'naviy-mafkuraviy immunitet shakllanib, mafkuraviy xurujlarga qarshi tarixiy argumentlar keltirish qobiliyati pishib yetiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkuri faqatgina mantiq va quruq faktlarga asoslanmaydi. Zamonaviy tarixiy didaktika tafakkurning yanada murakkabroq qatlamlariga murojaat qilishni talab etmoqda. Bu qatlamlar sirasiga tarixiy empatiya, voqelikka ko'p o'lchovli yondashuv hamda fanlararo integratsiya kiradi.

Tarixiy empatiya - bu shunchaki o'tmishdagi odamlarga hamdard bo'lish emas, balki kognitiv jihatdan o'sha davr muhitiga kirib borish, tarixiy shaxslarning xatti-harakatlari, qarorlari va dunyoqarashini o'z davri shart-sharoitlaridan kelib chiqib tushunishdir [6]. Bo'lajak o'qituvchi o'z shogirdlariga tarixni tushuntirar ekan, bugungi kun axloqiy me'yorlari va qadriyatlarini bilan o'tmishni qoralamasligi yoki ortiqcha ulug'lamasligi kerak. Tarixiy tafakkur talabada anakronizmdan, ya'ni o'tmish voqealariga hozirgi zamon nuqtayi nazaridan baho berish xatosidan qochish ko'nikmasini shakllantiradi.

Tarixiy voqealar doimo turli ijtimoiy guruhlar, sivilizatsiyalar yoki shaxslar tomonidan turlicha qabul qilingan. Multiperspektiv tafakkur bo'lajak tarixchilarga bitta voqeaga bir nechta nuqtayi nazardan qarash imkonini beradi. Masalan, Buyuk geografik kashfiyotlar jarayonini faqatgina yevropaliklar nigohi bilan emas, balki mahalliy hindular nigohi bilan ham tahlil qilish, ijtimoiy tabaqalanish davridagi jarayonlarni ham dehqon, ham hukmdor nuqtayi nazaridan yoritish shular jumlasidandir. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarni dogmatik fikrlashdan xalos qilib, tarixiy obyektivlikni ta'minlashga xizmat qiladi [7].

Tarixiy tafakkur vakuumda rivojlanmaydi. Voqealar va ularning sabab-oqibatlarini chuqur anglash uchun bo'lajak o'qituvchi tarixni geografiya, sotsiologiya, iqtisodiyot va falsafa bilan bog'lay olishi shart. Geotarixiy yondashuv orqali talaba davlatlarning paydo bo'lishi yoki inqirozini geografik joylashuv va iqlim o'zgarishlari bilan bog'lab tahlil qila oladi. Iqtisodiy bilimsiz esa urushlar va inqiloblarning asl mohiyatini anglash qiyin. Shuning uchun tarixiy tafakkurni shakllantirishning asosiy pedagogik shartlaridan biri muammoli darslarni interfaol va fanlararo uzviylikda tashkil etishdir.



Tarixiy tafakkurni shakllantirish jarayoni samaradorligini ta'minlashda pedagogik monitoring muhim o'rin tutadi. Monitoring talabani tarixiy bilimlarni qanday o'zlashtirayotganini, manbalar bilan ishlashda qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini, tarixiy voqealarni tahlil qilish va pedagogik xulosa chiqarish darajasini muntazam kuzatib borish imkonini beradi. Bunday yondashuv tarixiy tafakkurni shakllantirishni tasodifiy emas, balki boshqariladigan va izchil pedagogik jarayonga aylantiradi.

Pedagogik monitoring bir necha yo'nalishda olib borilishi mumkin. Birinchi yo'nalish - talabani tarixiy bilimlar bazasini aniqlash. Bunda uning tarixiy davrlar, muhim voqealar, shaxslar, tushunchalar va manbalar haqidagi bilimlari baholanadi. Ikkinchi yo'nalish - tahliliy ko'nikmalarni kuzatish. Bu jarayonda talabani sabab-oqibat aloqalarini aniqlashi, turli manbalarni qiyoslashi, tarixiy hodisani davr kontekstida baholashi va mustaqil xulosa chiqarishi o'rganiladi.

Uchinchi yo'nalish - amaliy-pedagogik qo'llash darajasini baholashdir. Bo'lajak tarix o'qituvchisi o'zlashtirgan tarixiy bilim va tahliliy xulosalarni kelajakdagi dars jarayonida qanday qo'llay olishi, o'quvchilar uchun mos topshiriqlar ishlab chiqishi, tarixiy manbalarni dars mazmuniga integratsiya qilishi va muammoli vaziyatlar yaratishi orqali baholanadi. Bu esa tarixiy tafakkurning kasbiy kompetensiyaga aylanish darajasini ko'rsatadi.

Monitoring jarayonida esse, manba tahlili, tarixiy keys, interaktiv xarita bilan ishlash, dars ishlanmasi tayyorlash, refleksiv kundalik yuritish va loyiha himoyasi kabi baholash shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday shakllar talabani nafaqat bilimini, balki fikrlash uslubi, dalillash madaniyati, ijodiy yondashuvi va o'z faoliyatini baholash qobiliyatini ham aniqlash imkonini beradi.

Pedagogik jarayonda tarixiy tafakkurni shakllantirish usullari qanchalik muhim bo'lsa, ushbu jarayon natijalarini to'g'ri baholash ham shunchalik ahamiyatlidir. An'anaviy yopiq testlar orqali kognitiv va tahliliy ko'nikmalarni o'lchab bo'lmaydi. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkuri qanchalik rivojlanganligini aniqlash uchun quyidagi mezonlar va indikatorlar tizimi taklif etiladi ^[8]:

- 1. Manbaviy-daliliy mezon (evidentlar indikator).** Talabani tarixiy bilimlarni qabul qilishida birlamchi va ikkilamchi manbalarga suyanish darajasi. Indikatorlari - tarixiy hujjatning haqiqiylikni tekshira olishi, muallifning maqsadini aniqlashi, manbadagi subyektiv va obyektiv ma'lumotlarni bir-biridan ajrata olish ko'nikmasi.
- 2. Tahliliy-sintezlovchi mezon (kausal indikator).** O'tmishdagi voqealarning ko'p omilli sabab-oqibat zanjirini yarata olish qobiliyati. Indikatorlari - oddiy xronologiyadan qochib, voqealarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sabablarini tizimlashtirish, tasodif va qonuniyatlarni farqlash, ma'lum bir tarixiy davrning yakuniy xulosalarini o'z so'zlari bilan ifodalab bera olishi.
- 3. Kontekstual-kreativ mezon (praktik indikator).** O'zlashtirilgan murakkab tarixiy bilimlarni kelajakdagi o'quvchilari yoshiga moslashtirib, dars loyihalarini yarata olish salohiyati. Indikatorlari - keys-stadilar yarata olishi, tarixiy rolli o'yinlar ssenariysini tuza bilishi hamda bugungi kun global muammolari va tarix o'rtasida o'xshashliklarni topa olishi.

Ushbu mezonlar asosida oliy ta'limda talabalarning mustaqil ishlari, esse yozish amaliyoti va pedagogik amaliyotdagi dars ishlanmalarini baholash sifatli tarixiy tafakkur egasi bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib chiqarishni kafolatlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirish o'z-o'zidan sodir bo'ladigan oddiy axborot almashinuvi emas. U kognitiv, qadriyatli va amaliy-faoliyat komponentlarini yaxlit birlashtirgan, o'ziga xos arxitekturaga ega bo'lgan murakkab pedagogik va psixologik tizimdir. Oliy ta'lim tizimi amaliyotida innovatsion muammoli darslar, raqamli texnologiyalar hamda germenevtik tahlildan tizimli foydalanish davr talabiga javob beradigan mutaxassisni tayyorlashning asosiy kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Ergashev, B. "Bo'lajak tarix o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida kognitiv kompetensiyaning ahamiyati". Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(16), 2025. 121-125-betlar.
- Zamilova, R. "The essence and structure of the historical thinking of the future teacher (Булажак ўқитувчиларнинг тарихий фикрлашининг моҳияти ва тузилиши)". Society and innovations / Жамият ва инновациялар, 2(10), 2021. 26-31-betlar.
- Yarmatov, R. B. "The role of the scientific heritage of Abu Rayhan Beruni in the training of future history teachers". Problems and Scientific Solutions, Melbourne, Australia, 2022. 35-42-betlar.

4. Farg'ona davlat universiteti huzuridagi Ilmiy kengash ishlari. Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish metodikasi (PhD dissertatsiyasi avtoreferati asosi). Farg'ona. 2021.
5. BestPublication ilmiy nashrlari. "Kelajak o'qituvchisi modelida raqamli texnologiyalarning o'rni (tarix fani)". O'zbekiston fan va innovatsiyalar, 2025. 2-3-betlar.
6. Toshpo'latov, A. M. "Tarix o'qitish metodikasida tarixiy empatiya va uning kognitiv asoslari". O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlar rivoji, 5(2), 2023. 88–92-betlar.
7. Qodirov, M. (2022). "Oliy ta'lim muassasalarida tarixiy bilishning multiperspektiv yondashuvlari". Pedagogik mahorat va innovatsiyalar, 1(4 2022. 112–115-betlar.
8. Xolmatov, D. Q. "Tarix fanini o'qitishda talabalar kompetensiyalarini baholashning zamonaviy texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiya, 2024. 45-48-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.